

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo'yicha 3-4 iyun kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida **"Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari"** mavzusida o'tkazilgan Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi. "Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari", "Искусственный интеллект и цифровые образовательные технологии: практика, опыт, проблемы и перспективы" "Artificial intelligence and digital educational technologies: practice, experience, problems and prospects".

2. Anjuman maqomi. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.

3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qator buyruq va ko'rsatmalari asos qilib olindi.

4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari.

Mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish borasida bajarilayotgan ishlar, jumladan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ushbu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni amaliy natijasi sifatida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Intellectual tizimlar va kompyuter texnologiyalari" fakultetida **"Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari"** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. Anjuman mamlakatni raqamlashtirish sharoitida sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari, mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajribani o'rganish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish, iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarining ilmiy asoslariga qaratilib, jahon talablariga mos innovatsion metodlar va texnologiyalarni sohaga qo'llash orqali ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazishdan iborat.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro integratsion jarayonlarda ishtirokini faollashtirish orqali korporativ innovatsion hamkorlikni mustahkamlashni ta'minlashdan iborat. Ilmiy-tadqiqot

ishlarini olib borayotgan iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini tahlil qilish, baholash va rag'batlantirish.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Respublikamizdagi Sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi: muammo va imkoniyatlar, oliy ta'limni raqamlashtirish. Tashkiliy va texnologik jihatlar; amalga oshirishning muammolari va yechimlari bo'yicha o'zaro fikr almashish.

6. O'tkaziladigan anjumaning Davlat ilmiy-texnika dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi.

Anjuman professor o'qituvchilar hamda iqtidorli yoshlar ishtirokidagi Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan loyihalar hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog'liq.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik. Anjumanda respublikamizdagi oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi, amaliy masalalarni yechishda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkonini beradigan ilmiy xulosa va tavsiyalar tayyorlanadi.

8. Anjumanda yosh olimlar, magistrlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi.

Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy professorlar, ilmiy izlanuvchi va doktorantlar, magistrantlar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Malayziya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Tojikston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki.

Anjumanda sanoat va ishlab chiqarish tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari va boshqa OO'YU yetuk olimlari, professor-o'qituvchilari va iqtidorli yoshlari hamda ilmiy tekshirish institut va markazlari yosh tadqiqotchilar ishtirok etishdi.

"Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro anjuman yalpi majlisi 3-iyun soat 10:00 da, 3-iyun kuni soat 15:00 va 4-iyun kuni soat 10:00 dan boshlab anjumaning sho'ba yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Intellectual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti dekani Fayzullo Maxmadiyarovich Nazarov tadbirni ochib berdi. Universitet jamosini qutlab, ushbu konferensiyani muvaffaqiyatli o'tkazishini ta'kidlab o'tdi.


Shundan so'ng, universitet jamoasini qutlash Intellectual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti, kompyuter ilmlari va texnologiya fanlari kafedrası professori, Media markaz direktori Lutfillayev Mahmud Xasanovich va boshqa qator mehmonlar so'zga chiqishdi.

Anjumaning sho'ba yig'ilishlarida Muxtar Avezov nomidagi Qozog'iston davlat universiteti, Saratov davlat universiteti mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar onlayn va oflayn ishtirok etishdi. Anjuman doirasida 7 ta sho'ba ish olib borib, unda jami 90 dan ortiq ma'ruzalar tinglandi. Unda doktorantlar, magistrlar va yosh iqtidorli talaba-yoshlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari

muhokama qilindi. Sho'ba majlislarida eng yaxshi ma'ruza tanlovi o'tkazilib, g'oliblar aniqlandi.

Unga ko'ra, yalpi majlisda o'z taqdimotlari bilan eng faol ishtirok etgan ishtirokchilar: professor Muhammad Suzuri Hitam (Malayziya), tayanch doktorant A.Safarov hamda S.Kenjayevar taqdirlanishdi.

Anjuman yakunida fakultet kafedralarida iqtidorli talabalar bilan seleksion ishlarni olib borish va ularni istiqbolli ilmiy mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etish ko'lamini yanada kengaytirish hamda amaliyotga joriy etish, kafedralarning ilmiy to'garaklarida doimiy sohalarning zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yangiliklarini o'zlashtirishga kelishib olindi.







**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor:**



H.Xushvaqto'v